

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/05.05.2023.Fil.60.07 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

XAITOV XUSNIDDIN XASANOVICH

**“ALPOMISH” DOSTONINING DIALEKTAL XUSUSIYATLARI
(Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti asosida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferat
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological sciences**

Xaitov Xusniddin Xasanovich

“Alpomish” dostonining dialektal xususiyatlari (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti asosida).. 3

Хайтов Хусниддин Хасанович

Диалектные особенности эпоса «Алпамыш» (по варианту Фазила Юлдаш
угли)..... 25

Khaitov Khusniddin Khasanovich

Dialectal features of the epic “Alpomish” (According to the version of Fazil Yuldash’s
son)..... 52

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/05.05.2023.Fil.60.07 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

XAITOV XUSNIDDIN XASANOVICH

**“ALPOMISH” DOSTONINING DIALEKTAL XUSUSIYATLARI
(Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti asosida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4038 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Andijon davlat universiteti veb-sahifasining www.adu.uz hamda «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalining www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ermatov Ixtiyor Rizakulovich
Filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Usmanov Farxad Faxriddinovich
Filologiya fanlari doktori, doktori

Rozikova Gulbaxor Zaylobidinovna
Filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.60.07 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 170100, O‘zbekiston Respublikasi, Andijon shahar, Universiteti ko‘chasi 129-uy. Telefon/faks: 0(374) 223 88 30, e-mail: agsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil:170100, Andijon shahri, Universitet ko‘chasi, 129-uy.

Tel.: 0(374) 223 88 14).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.X.Quronov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, f.f.d., professor

N.N.Azizov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, f.f.b.f.d.,(PhD)

M.M.Saidxonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida muayyan milliy adabiy tilning shakllanishi, rivojida asosiy manba sifatida xizmat qiluvchi, milliy-ma'naviy qadriyat va lingvistik tafakkur mahsuli sifatida boy qadimiy-tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan xalq og'zaki ijodi asarlari, xususan, liro-epik asarlarni o'rganishga sotsiolingvistik, etnolingvistik, pragmalingvistik, antroposentrik, folklor dialektologiyasi va lingvofolklorshunoslik aspektdagi yonadashuv borgan sari ortmoqda. Ayniqsa, xalq og'zaki ijodi namunalarini amaliy tilshunoslik va dialektologik tamoyillar asosida lingvistik aspektlarda o'rganilishi adabiy tilning boyishining asosiy ichki omili ekanini isbotlab bermoqda.

Dunyo tilshunosligida xalq og'zaki ijodi asarlarining til xususiyatlarini o'rganish, ayniqsa, xalq dostonlari matnida qo'llangan fonetik, leksik-frazeologik, grammatik vositalarning funksional-semantik, stilistik imkoniyatlarini tadqiq etish borasida boy ilmiy tajribalar to'plangan. Bugungi kunda xalqning tarixi, etnik takomili, milliy madaniyatini o'zida jamlagan epik ijodning eng sara namunalaridagi dialektal lisoniy birliklarni yangi lingvistik paradigmalarda asosida sinxron va diaxron aspektda ilmiy o'rganish kun tartibiga qo'yilmoqda. Xalq jonli tili – lahja va sheva unsurlarining epik dostonlar matnida qo'llanishiga oid lisoniy tahlillar milliy tilning shakli hamda mazmuniy takomili haqida aniq va batafsil ma'lumotlar berishi bilan muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Uchinchi Renessans davri O'zbekiston ilmiy muhitida maydonga kelayotgan yangicha ilmiy yondashuvlar va munosabatlar o'zbek tilshunosligining lingvofolkloristika, lingvokulturologiya, onomastika, leksikologiya, semasiologiya, leksikografiya sohalarida ham yaqqol sezilmoqda. Xususan, "Alpomish" dostoni tilini xalq shevalari va adabiy til uyg'unligi asosida o'rganish borasida bir qator tadqiqotlarning maydonga kelayotgani buni isbotlamoqda. Ustuvor vazifa sifatida qayd etilganidek, "...murakkab zamonda har qanday milliy madaniyatning bulog'i bo'lgan folklor san'atiga e'tibor va qiziqish, afsuski, susayib borayotgani ham sir emas. Holbuki, folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir"¹. Shunday bo'lsada, "Alpomish" milliy eposimizning boy madaniy qirralari, etnografiyasi, dialektal xususiyatlari – lahja va sheva birliklari lingvistik aspektda keng ko'lamda maxsus o'rganilmagan. Dostonning til xususiyatlarini ta'minlovchi dialektal lisoniy birliklarning leksik-semantik, derivatsion xususiyati, uslubiy-madaniy tabiati, lingvopoetik imkoniyatlarini aniqlash va ularning adabiy tilga munosabati masalalari haqida aniq va ishonchli xulosalar chiqarish o'zbek tilshunosligi uchun muhim va qimmatli material bera olishi bilan zarurat sifatida ahamiyatlidir va dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимда сўзлаган нутқи. // "Халқ сўзи" газетаси. – Тошкент, 2019 йил, 7 апрель.

“Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2018-yil 1-noyabrdagi PQ-3990-son “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 14-maydagi PQ-4320-sonli “Baxshichilik san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida “Alpomish” dostonining lisoniy, tipologik va badiiy-estetik xususiyatlarini ilmiy o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, rossiyalik olim L.Penkovski tomonidan doston rus tiliga tarjima qilingan va nashr etilgan. Mazkur tarjima asosida Y.Kamarovski² tomonidan slovak tiliga tarjima qilinib, ilmiy o‘rganilgan. Koreyalik O.Ingyong³ tadqiqotida esa “Alpomish” dostoni qiyosiy-tipologik aspektida tadqiq etilgan. O‘zbek tilshunosligida “Alpomish” dostonining leksik-semantik, frazeologik, sintaktik va uslubiy xususiyatlari R.Rasulov, S.Tursunov, B.To‘ychiboyev, N.Mahmudov, I.Yormatov, S.Yo‘ldosheva, M.Saidov, A.Abdiyev, Sh.Norqulovalar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa⁴, leksikografiya sohasida T.Mirzayev, J.Eshonqul, S.Fidokor, B.O‘rinboyev, K.Bozorboyev, A.Turobovlar tomonidan doston tiliga doir lug‘atlar yaratilgan⁵.

² Bu haqda qarang: Мирзаев Т. Достонлар гултожи // Ўзбек халқ ёдгорликлари. I жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005. – Б.28.

³ Ингёнг О. “Алпомиш” ва “Жумўнг” достонларининг киёсий-типологик таҳлили: Филол. фан. д-ри. дисс... – Тошкент, 2014. – 254 б.

⁴ Расулов Р. Синтактические связи между словами в дастане “Алпомиш”: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1975. – 25 с; Турсунов С. Лексические особенности дастана “Алпамыш”: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990. – 29 с; Тўйчибоев Б. “Алпомиш” ва халқ тили. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – 160 б; Махмудов Н. Ўзбекнинг ўлмас сўзи // Тил. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – Б.25-37; Ёрматов И. “Алпомиш” достонида сўз такрори шакллариининг қўлланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 1989. -№5. – Б.53-58; Шу муаллиф. “Алпомиш” достони поэтикасининг баъзи масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1990. -№5. – Б. 33-38; Йўлдошева С. “Алпомиш” достонидаги ўхшатишларнинг ғоявий-эстетик функцияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1986. -№1. – Б.47-52; Саидов М. “Алпомиш” достонидаги исмлар ҳақидаги қайдлар // Муҳаммаднодир Саидов – маърифат фидойиси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. – Б.62-65; Абдиев А. “Алпомиш” достони тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари (Хўкиз жиров варианты асосида): Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Нукус, 2011. – 23 б; Норкулова Ш. “Алпомиш” достонининг ономазиологик асослари. –Сурхондарё: Сурхон, 2016. – 64 б.

⁵ Мирзаев Т., Эшонкул Ж., Фидокор С. “Алпомиш” достонининг изоҳли луғати. – Тошкент: Elmus-Press-media, 2007. – 164 б; Ўринбоев Б., Бозорбоев К. “Алпомиш” достони фразеологизмларининг таъбири. – Самарқанд, 1998. – 42 б; Turobov A. “Alpomish” dostonidagi shevalarga xos so‘zlarning izohli lug‘ati. – Samarqand, 2006. – 52 b.

Keyingi yillardagi tadqiqotlar sirasida Y.Hojiyev⁶ tomonidan dostonidagi atov birliklarning semantik-struktur, kontseptual va leksikografik talqini masalalari, D.Ashurov⁷ tomonidan dostonidagi lingvomadaniy birliklarning lisoniy xususiyatlari, B.Yunusova⁸ tomonidan dostonidagi onomastik birliklarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari tadqiq qilindi. Biroq dostonning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida qo‘llangan dialektizmlarning leksik-semantik, derivatsion va uslubiy xususiyatlari sinxron va diaxron aspektida monografik tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Guliston davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi tarkibiga kiruvchi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili va xalq shevalarining o‘zaro munosabati” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi “Alpomish” dostonining dialektal xususiyatini ta’minlagan lisoniy va nolisoniy omillarni o‘rganish, doston matniga xos dialektizmlarning lug‘aviy, ma’noviy va uslubiy xususiyatlarini ilmiy tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

“Alpomish” dostonining filologik tadqiqini ilmiy umumlashtirish, lingvofolkloristika sohasidagi o‘rganilish darajasini belgilash;

doston matnida qo‘llangan leksik dialektizmlarning lug‘aviy-ma’noviy, tarixiy-etimologik jihatlarini, uslubiy xususiyatlarini yoritish;

dostonning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li hamda Abdunazar Poyonov ijro etgan variantlarining qiyosiy tahlili asosida jirov idiolektiga xos leksik birliklarni tasniflash va tavsiflash;

doston matnidagi fonetik dialektizmlar yuzaga kelishidagi lisoniy va nolisoniy omillarni izohlash, bu birliklarning eposning g‘oyaviy mazmun mundariyasi takomilidagi lingvistik ahamiyatini ochib berish;

doston matnida qo‘llangan morfologik dialektizmlarning derivatsion xususiyatlarini tahlil qilish, bu birliklarning baxshi g‘oyaviy-estetik niyatiga muvofiq holda dialektallikni ta’minlashdagi o‘rnini ko‘rsatib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida 2010-yil “SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyatida nashr etilgan “Alpomish” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li tomonidan kuylangan varianti tanlandi.

Tadqiqotning predmetini “Alpomish” dostonidagi leksik, fonetik, morfologik dialektizmlarning lug‘aviy-ma’noviy, tarixiy-etimologik va uslubiy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsiflash, qiyoslash, komponent tahlil, tarixiy-genetik, statistik, matniy tahlil usullaridan foydalanildi.

⁶ Хожиев Ю. “Алпомиш” достонидаги шахс маънавий сифатларини ифода этувчи атов бирликларнинг семантик-структур, концептуал ва лексикографик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа док. ... (PhD) диссер. автореф. – Тошкент, 2020. – 56 б.

⁷ Ашуров Д. “Алпомиш” достонининг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа док. ... дисс. – Наманган, 2021. – 155 б.

⁸ Юнусова Б.М. “Алпомиш” достони ономастик бирликларининг лексик-семантик ва услубий тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа док. ... (PhD) диссер. автореф. – Наманган, 2021. – 56 б.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Alpomish” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ijrosidagi varianti leksikasida dialektallikni ta‘minlagan antroponim, oronim, etnonim kabi onomastik birliklarning leksik-semantik, tarixiy-etimologik jihatlari, genetik manbalari, bu birliklarning asar mavzu va g‘oyasiga mutanosib tarzda shakl va ma‘no uyg‘unligi tamoyili asosida qo‘llanishining uslubiy jihatlari asoslangan;

dostonning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li hamda Abdunazar Poyonov tomonidan ijro qilingan variantlar matnida baxshilarning sheva arealiga mansubligidan kelib chiqqan holda qo‘llangan *irg‘alib, lo‘kcha-nor, shobir, chibich, bo‘bak, pishnadi, dalba* kabi va boshqa ko‘plab dialektizmlar mavjudligi aniqlangan, bunday leksik dialektizmlar “Alpomish” dostoni matnida *baxshi-jirovlar idiolektini* shakllantirganligi dalillangan;

“Alpomish” dostonining izohli lug‘ati”da keltirilmagan *bundayg‘achiq, mag‘an, sag‘an, buytib, ertan, berayik* kabi morfologik dialektizmlarning leksik-semantik, derivatsion xususiyatlari ilk bor tavsiflangan, hozirgi qipchoq dialektida bu birliklar morfologik shakllari bilan ham aynan – bir xil qo‘llanishi doston ijrochilarining bir hududiy lahja va shevaga mansub ekanligi areologik jihatdan isbotlangan;

lug‘aviy birliklar tarkibidagi turli xil kombinator va pozitsion tovush o‘zgarishlari asosida yuzaga kelgan ko‘plab fonetik dialektizmlar doston matnining sodda va tushunishga oson holda ifodalanishida, mahalliy kolorit, areal lahjaviy mansubliklarni o‘zida aniq va to‘liq aks ettirishda asarning areodialektal xususiyatini ta‘minlovchi muhim omil ekanligi, bu lisoniy birliklar doston tilidagi nazmiy qismlarida ritmik badiiylik hosil qilinishida, bandlarda bo‘g‘inlarning mutanosibligi va uyg‘unligini ta‘minlashda o‘ziga xos uslubiy vazifa bajarganligi lingvistik qonuniyatlar orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Alpomish” dostonining dialektal xususiyatini ta‘minlagan lisoniy va nolisoniy omillar tahlili, eposda qo‘llangan dialektal birliklarning tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosa va talqinlar folklor dialektologiyasi, onomastikasi sohalarini yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitishi, xususan, tilshunoslikning lingvofolkloristika, leksikologiya, leksikografiya, uslubiyat sohalari bo‘yicha yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

milliy eposimizning dialektal xususiyatlarini o‘rganish asosida xalq dostonlarida baxshilarning nutqigagina xos bo‘lgan jirov idiolektli leksik qatlam shakllanishi mumkinligi ilmiy tasdiqlangan;

tadqiqot materiallari lingvofolkloristik, dialektologik lug‘atlar tuzishda manba bo‘lib xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi lingvistik tahlil metodologiyasi negizida shakllantirilgani, ilmiy-badiiy manbalarga tayanilgani, ishonchli va samarali tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tarixiy, etimologik, tarixiy-genetik hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, tadqiqotda ilgari surilgan konseptual g'oyalar, nazariy xulosalar o'zbek tilshunosligida lingvofolkloristik tadqiqotlarni amalga oshirishda, xususan, xalq dostonlarining tili va uslubi, leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etishda ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tahlilga tortilgan faktik materiallar, olingan nazariy xulosalar oliy o'quv yurtlarining filologiya ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan "O'zbek dialektologiyasi", "Dialektal leksikografiya", "Tarixiy dialektologiya", "Dialektologiya o'qitish metodikasi va metodologiyasi" va "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanlari bo'yicha dastur va darsliklar yaratishda, doston leksikasi bo'yicha dialektologik, izohli lug'atlar tuzishda manba vazifasini o'tashi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Alpomish" dostonining dialektal xususiyatlarini tadqiq etish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

lug'aviy birliklar tarkibidagi turli xil kombinator va pozitsion tovush o'zgarishlari asosida yuzaga kelgan ko'plab fonetik dialektizmlar doston matnining sodda va tushunishga oson holda ifodalanishida, mahalliy kolorit, areal lahjaviy mansubliklarni o'zida aniq va to'liq aks ettirishda asarning areodialektal xususiyatini ta'minlovchi muhim omil ekanligi, bu lisoniy birliklar doston tilidagi nazmiy qismlarida ritmik badiiylik hosil qilinishida, bandlarda bo'g'inlarning mutanosibligi va uyg'unligini ta'minlashda o'ziga xos uslubiy vazifa bajarganligi lingvistik qonuniyatlar orqali aniqlanganligiga doir nazariy ma'lumotlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan OT-F1-030 "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish" fundamental loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 1-apreldagi 04/1-788-son ma'lumotnomasi). Natijada, monografiyaning folklor, xalq og'zaki ijodi namunalari o'zida qismi adabiy tur va janrlar takomili, adabiy an'ana va o'ziga xoslik masalalarida yangi ma'lumotlar bilan boyishiga erishilgan;

dostonning Fozil Yo'ldosh o'g'li hamda Abdunazar Poyonov tomonidan ijro qilingan variantlar matnida baxshilarning sheva arealiga mansubligidan kelib chiqqan holda qo'llangan *irg'alib, lo'kcha-nor, shobir, chibich, bo'bak, pishnadi, dalba* kabi va boshqa ko'plab dialektizmlar mavjudligi aniqlangan, bunday leksik dialektizmlar "Alpomish" dostoni matnida *baxshi-jirovlar idiolektini* shakllantirganligi dalillangan va aniqlangan o'rinlardan BV-Atex-2018-(143)-raqamli "Ko'zi ojiz shaxslar uchun kompyuter texnikasidan foydalanish, matnlarni o'qish va yozish imkonini beruvchi o'zbek tiliga asoslangan gapiruvchi dasturiy ta'minot va ovoz sintezatorini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 1-apreldagi 04/1-787-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur grant loyihasi doirasida tayyorlangan o'quv-uslubiy lug'atda o'zlashma so'zlarning semantik tabiatini to'laqonli tavsiflash, izohlashga erishilgan.

lug'aviy birliklar tarkibidagi turli xil kombinator va pozitsion tovush o'zgarishlari asosida yuzaga kelgan ko'plab fonetik dialektizmlar doston matnining sodda va tushunishga oson holda ifodalanishida, mahalliy kolorit, areal lahjaviy

mansubliklarni o'zida aniq va to'liq aks ettirishda asarning areodialektal xususiyatini ta'minlovchi muhim omil ekanligi, bu lisoniy birliklar doston tilidagi nazmiy qismlarida ritmik badiiylik hosil qilinishida, bandlarda bo'g'inlarning mutanosibligi va uyg'unligini ta'minlashda o'ziga xos uslubiy vazifa bajarganligi lingvistik qonuniyatlar orqali aniqlangan nazariy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Sirdaryo viloyati teleradiokompaniyasining "Til – millat ko'zgusi", "Mavzu", "Minbar so'zlaganda" ko'rsatuvlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Sirdaryo viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 9-martdagi 01-01/48-ma'lumotnomasi) Natijada, mazkur teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan holda ilmiy dalillarga boy bo'lishi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan jami 20 ta, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqotning joriylanishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning "**O'zbek xalq dostonlari tili va ularning o'rganilishi**" deb nomlangan birinchi bobi uch bo'limdan iborat bo'lib, uning "*Dialektizmlar lingvofolkloristika va folklor dialektologiyasining asosiy tushunchasi sifatida*" deb nomlangan birinchi bo'limida lingvofolkloristika, folklor dialektologiyasi, fonetik, morfologik, leksik, etnografik, sintaktik-stilistik dialektizmlar hamda adabiy til, so'zlashuv tili, sheva haqida fikr yuritilgan va shu tushunchalarga munosabat bildirilgan.

Lingvofolkloristika termini rus tilshunosligida XX asrning 70-80-yillarida L.Xrolenko tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan bo'lsa, bundan o'n asr oldin turkiy tillar ilmining otasi bo'lgan Mahmud Koshg'ariy tomonidan "Devoni lug'atit turk" asari orqali dialektologik, areologik jihatdan to'laqonli ilmiy asoslab berilgan edi. Bugungi "lingvofolkloristika" sohasi va ushbu atama xalq og'zaki ijodi va uning til xususiyatlarini o'rganish va tadqiq etishni qamrab olganligi, uning bevosita obykti folklor matni (folklorshunoslik bilan umumiy obyekt), eng muhim lingvistik vazifa esa folklorshunoslikning tavsifi hisoblanishi e'tirof

etiladi”⁹. O‘zbek tilshunosligida lingvofolkloristika sohasidagi yirik va aniq tadqiqot ishlari esa XX asrning 50-yillarida amalga oshirila boshlandi. Xususan, Sh.Shoabdurahmonov¹⁰ tomonidan ilk bor “Ravshan” dostonining badiiy tili” mavzusidagi nomzodlik ishi himoya qilindi. XX asrning 70-yillariga kelib xalq dostonlari tilining leksik-semantik, grammatik xususiyatlari o‘ziga xos talqin qilindi va o‘rganildi. O‘zbek tilshunosligi tarkibida bo‘lgan *folklor dialektologiyasi* og‘zaki poetik ijodga mansub asarlardagi dialektal xususiyatlarni, ularning tilini o‘rganuvchi soha hisoblanadi. Mazkur tushunchaga shevashunos olim S.Ashirboyev shunday ta’rif bergan: “folklor dialektologiyasi (u lingvofolkloristika deb ham yuritiladi). Bu fan folklor asarlari tilini, xususan, uning tilidagi shevalarga xos qatlamni o‘rganadi. Ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi asarlari tili shaklan adabiy tilni va mazmunan shevalarni ko‘proq aks ettiradi”¹¹. Ya’ni olim folklor dialektologiyasi va lingvofolkloristika tushunchalari aynan bir xil mazmunda ekanligini ta’kidlaydi. Umuman olganda, folklor asarlari matni so‘zlashuv uslubi, onomastika sohasi obyekti bo‘lishi bilan birga folklor dialektologiyasining ham obyektidir.

Badiiy asarlarning *dialektal* xususiyatlari unda qo‘llangan fonetik, leksik, morfologik dialektizmlarning asar lug‘aviy tarkibidagi salmog‘i asosida belgilanadi. Dialektizmlarning badiiy asardagi semantik, stilistik xususiyatlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan B.Fayzullayevning nomzodlik dissertatsiyasida¹² dialektizmlarning turlari va ularning o‘ziga xosligini ifodalovchi xususiyatlar izohlanib, har bir turga sharhlar keltirilgan. *Leksik dialektizm* shevaga oid so‘zlarning badiiy asarlarda qo‘llanishidir. Masalan, *darpanmangla (bezovtalangmanglar)* (Xorazm), ...*kelinbiyning (kelinoyi) biror marta noroziligini eshitgan emasman (“Qo‘nalg‘a”)*. *Toshkentdagi axtiqlarini (nevaralarini) o‘zlari Urganchga kelganlaridayam ko‘raveramiz (“Qo‘nalg‘a”)*¹³. Muallif badiiy asarlardan keltirilgan leksik dialektizmlarni izohlar ekan, bunda biror shevaga oid so‘z boshqa biror shevaga yoxud adabiy tildagi variantiga qiyoslanadi. Mazmun jihatdan bir tushunchani ifodalab, shevalarda turlicha nomlangan so‘zlarga leksik dialektizm deya ta’rif beradi. Ya’ni yuqoridagi misolda Xorazm shevasi vakilining shu shevadagi nutqini ifodalashda *darpanmangla* dialektizmi *bezovtalangmanglar* ma’nosida o‘rinli qo‘llangan. *Sintaktik-stilistik dialektizmlar* gap qurilishida shevaga xoslikda ko‘rinadi: *“Shukur, odamga o‘xshab so‘zlab bilar ekansiz (“Qo‘nalg‘a”)*. *Alni na, o‘n marta yuvamilar (“Qo‘nalg‘a”)*. Sintaktik-stilistik dialektizmlarni morfologik, fonetik dialektizmlar shakllantiradi”¹⁴. Dialektizm tushunchasi va uning turlari haqida A.Ishayev, T.Enazarov kabi olimlar ham o‘z munosabatini bildirib o‘tishgan. Ushbu olimlarning dialektizm haqidagi qarashlari bir-biriga yaqin ekanligini aytib o‘tish mumkin. Dialektizm lingvofolkloristikaning

⁹ Хроленко Л. Семантика фольклорного слова. – Воронеж, 1992. –166 с.

¹⁰ Шоабдурахмонов Ш. “Равшан” дostonining бadiiy тили: Филол. фанлари номзоди дисс... – Тошкент, 1949. – 110 б.

¹¹ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2021. – B.5.

¹² Файзуллаев Б. Дialektizmy в языке художественных произведений: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1979. – 156 с.

¹³ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2021. – B. 88-89.

¹⁴ Ko‘rsatilgan asar. – B.90.

ham, folklor dialektologiyasining ham o'rganish obyekti bo'la oladi. Adabiy til, so'zlashuv tili va sheva istilohlari esa bir-biriga bog'liq bo'lgan alohida-alohida tushunchalarni ifodalaydi.

Tadqiqotning *“Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li ijrosidagi “Alpomish” dostonining lingvofolkloristik jihatdan o‘rganilish darajasi”* deb nomlangan ikkinchi bo‘limida *“Alpomish”* dostonini yozib olish, uning matnlarini to‘plash hamda ilmiy o‘rganish ishlari tadqiq etilgan. *“Alpomish”* dostoni yaratilgandan to hozirga qadar baxshilar tomonidan ijro etib kelinmoqda. XIX asrning oxirlarida dastlab madaniyat durdonasi bo‘lgan eposning qozoq va qoraqolpoq variantlari yozib olina boshlangan. Dostonning o‘zbek tilidagi variantlarini yozib olish ishlari ham XIX asrning oxirlarida boshlangan. Folklorshunos T.Mirzayevning qayd etishicha, rus sharqshunos olimi E.Kall 1890-yil o‘z kundaligida Termizga yaqin bo‘lgan Solihobod qishlog‘ida Omonnazar degan kishidan doston tinglaganligini, bu inson soatlab kuylaganligini yozadi. Aynan kundalikda qaysi doston kuylanganligiga batafsil to‘xtalmagan. Biroq ushbu kundalikda *“Alpomish”* dostoniga bog‘liq bo‘lgan ba’zi rivoyatlar uchraydi¹⁵. Professor Hodi Zarif esa bu kundalikni sinchkilab o‘rganib chiqib, E.Kalning Omonnazar baxshidan eshitgan dostoni aynan *“Alpomish”* ekanligiga aniqlik kiritadi¹⁶.

Dostonni yozib olish, uning matnlarini to‘plash hamda ilmiy o‘rganish ishlarini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

a) dostonni baxshilar ijrosidan yozib olish bosqichi. Bu bosqichni G‘ozi Olim Yunusov boshlab bergan.

b) doston matnlarini tahrirlash, chop etish uchun tayyorlash bosqichi. G‘.O.Yunusov yozib olgan 50 sahifalik *“Alpomish”* dostoni 1923-yil nashr etilgan. Abdurauf Fitrat 1928-yil *“O‘zbek adabiyoti namunalari”* kitobida Berdi baxshidan yozib olingan parchani darslikka kiritadi. Hodi Zarif Fozil Yo‘ldosh variantining birinchi qisimini qisqartirib, *“O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi”*da nashr ettirgan¹⁷.

d) dostonni folklorshunoslik yo‘nalishida ilmiy o‘rganish bosqichi. Dostonning 1939-yildagi ilk nashridagi¹⁸ Hamid Olimjon tomonidan yozilgan so‘zboshini asarni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot sifatida aytish mumkin.

e) dostonni dialektologik yo‘nalishda ilmiy o‘rganish bosqichi. *“Alpomish”* dostonining til xususiyatlari o‘zbek tilshunosligida alohida o‘rganilgan¹⁹.

“Alpomish” dostonini yozib olish ishlari boshlanishi bilan olimlarning asar til xususiyatlarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari yuqori bo‘lgan. Bu asar nafaqat o‘zbek olimlarining, balki xorij olimlarining e’tiborini ham tortib kelgan. Dostonni ham folklorshunoslik, ham dialektologik nuqtayi nazaridan o‘rgangan olimlarning aksariyati Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantiga tayanishgan.

¹⁵ Мирзев Т. “Алпомиш” дostonининг ўзбек вариантлари. –Тошкент: Фан, 1968. –Б. 6.

¹⁶ Зарипов Х. К изучению узбекского народного эпоса. – Москва: Изд-во АН ССР, 1958. – 260 с.

¹⁷ Ўзбек фольклори (тузувчи Ходи Зарифов) – Тошкент: Ўздавнашр, 1939. – Б.80-128.

¹⁸ Алпомиш. (Айтувчи: Фозил Йўлдош. Нашрга тайёрловчи: Ҳамид Олимжон). – Тошкент: Ўздавнашр, 1939. – 140 б.

¹⁹ Расулов Р. Синтаксические связи между словами в дастане «Алпомиш»: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1975. – 25 с.

Birinchi bobning uchinchi bo‘limi “*Alpomish*” asari tarqalgan areallar va doston tilidagi shevaga xos birliklarning lisoniy xususiyatlari” deb nomlanadi.

Unda xalq og‘zaki ijodi tarqalgan areal va dostonchilik maktablari hamda “Alpomish” dostonining dialektal xususiyatlari *dialektal leksik birliklar* misolida atroflicha o‘rganilgan. Xalq og‘zaki poetik ijodining namunalari keng tarqalgan hududlar sifatida Farg‘ona, Andijon, Namangan, Toshkent, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlarini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Bu hududlardan Farg‘ona, Andijon, Namangan, Toshkent, Buxoro viloyatlarida asosan xalq og‘zaki ijodining lirik, dramatik, maxsus turlariga oid janrlarda yaratilgan asarlari ko‘proq tarqalgan. Epik turga mansub bo‘lgan dostonlar esa Surxondaryo, Qashqadaryo vohalarida, Navoiy, Samarqand hamda Xorazm viloyati hududlarida ijro qilingan va keng tarqalgan. Ishda asosan dostonga xos dialektal xususiyatlar o‘rganilayotganligi bois dostonlar tarqalgan hududlarga e’tibor qaratishni joiz topdik. Xalq og‘zaki ijodining doston janriga mansub tarqalgan hududlarda dostonchilik maktablariga asos solingan. Shu xususiyatlarni inobotga olgan holda Xorazm va Samarqand areali misolida o‘rganish o‘rinli bo‘ladi. Bunda doston tarqalishining Xorazm areali hamda dostonchilik rivojlangan Surxondaryo, Qashqadaryo, Navoiy viloyatlarini Samarqand arealiga kiritishni ma’qul ko‘rdik. *Samarqand areali*. Dostonchilik yuqori rivojlangan Samarqand arealida bir necha dostonchilik maktablariga asos solingan. Bulung‘ur dostonchilik maktabida kamolga yetgan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li tomonidan ijro etilgan “Alpomish” dostoni variantining dialektal xususiyatlariga to‘xtaldik. “Qipchoq lahjasi shevalariga mansub bo‘lgan hamda “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi epik asarlar bo‘yicha amalga oshirilgan keyingi ilmiy tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, dostonning asosiy variantlari o‘zbek milliy tilining yirik komponentini tashkil etuvchi qipchoq dialekti vakillari tomonidan yaratilgan”²⁰. Doston matnidagi dialektal xususiyatlarni ta’minlovchi dialektizmlarga e’tibor qaratamiz: “*Ko‘ring darveshdi, yoydi qulochdi, biylar bilan boybicha topshdi...*” (AD, 13-bet). Jumlada qo‘llanilgan *darveshdi*, *qulochdi* dialektizmlaridagi *-di* qo‘shimchasi tushum kelishigi formasidir. Ya’ni shakl yasovchi bu vosita fe’lning o‘tgan zamon ma’nosini emas, shaxs va narsa otiga qo‘shilib, tushum kelishigining dialektal formasini hosil qilmoqda. Bunda, birinchi navbatda, sa’j san’atining hosil qilinishi tufayli ayni morfologik dialektizmga murojaat etilgan, *darveshdi*, *qulochdi* va *topshdi* birliklari uyg‘unligiga erishilib, dialektal kolorit ta’minlangan. “*Saman sariga tush, yo olapocha to‘riga tush, shapaqning zo‘riga tush*”, – deb qo‘riqni soldi, yollari eshilgan ipakday bir chipor otning bo‘yniga tushdi” (AD, 14-bet). Yuqoridagi gapda *sari* shevaga xos so‘z. Bu birlik adabiy tilda rang-tusni ifodalovchi, sifat turkumiga mansub *sariq* leksemasi o‘rnida qo‘llangan. So‘zning oxiridagi [q] undoshi tushirilgan, dialektal mazmundorlik hosil qilingan. “*Sari* – sariq. Sharqiy grupp qipchoq shevalarida *sariq* so‘zining ham bir nechta ma’nolari bor. Avvalo, u ham asosan rangni bildiradi”²¹. *Sari* dialektizmi rang-tus ma’nosida qipchoq sheva vakillarining

²⁰ Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.132.

²¹ Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979. – Б.28.

nutqida hozir ham faol qo'llanadi. Tahlil etilgan fonetik, leksik, morfologik dialektizmlar dostonida asar qahramonlarini ta'rif-tavsif qilishda, voqealar tasvirida qo'llanib, ular orqali xarakter, obraz kayfiyati, holati o'ziga xos tarzda bayon etilishiga erishilgan. Bunday lisoniy birliklar tilimizda norma sifatida qabul qilinmagan, ular xalq lahja va shevalarida keng qo'llanishdagi dialektal birliklar hisoblanadi. Har bir dialektal matn dialektizmlarning turlaridan kelib chiqqan holda o'z xususiyatini to'liq namoyish qila oladi.

Dissertatsiyaning **“Alpomish” dostonida leksik dialektizmlar ifodasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida lug'aviy dialektizmlar tarixiylik va zamonaviylik nuqtayi nazardan tahlil etilgan. *“Alpomish” dostonining leksik boyligi: doston tilidagi dialektal onomastik leksik birliklar*” deb nomlangan birinchi bo'limda dialektal antroponimlar, dialektal oronimlar, dialektal etnonimlar tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarning barchasida og'zaki va yozma nutqda qo'llanish hududiga ko'ra chegaralangan til hodisalari *dialektizmlar* atamasi bilan ifodalangan. Dialektal til birliklari umumtilga xos bo'lmay, milliy tilning mahalliy ko'rinishlari bo'lgan lahja va shevalarga xos bo'lgan hodisa sanaladi. Bu birliklar odatda biror dialektning vakillari nutqida ishlatilib, ko'pincha boshqa dialektlarning vakillariga, qolaversa, adabiy til normalariga taalluqli hisoblanmaydi. Dialektizm asosan uch turli bo'ladi: 1. Lug'aviy dialektizm – lug'aviy birliklardagi turi. 2. Grammatik dialektizm – grammatik hodisalardagi turi (masalan, ba'zi dialektlarda o'rin ma'nosi uchun *-ga*, aksincha, jo'nalish ma'nosi uchun *-da* ishlatilishi kabi). 3. Fonetik dialektizm – tovush talaffuzi va tovush o'zgarishiga bog'liq turi (masalan, unilarning ba'zi dialektlarda cho'ziqroq va yumshoqroq talaffuz qilinishi, ayrim dialektlarda bir tovush o'rniga boshqa tovushning kelishi va b.)²².

N.Mahmudov doston va uning tili xususida quyidagi fikrlarni bildiradi: *“Alpomish” dostonida o'zbek xalqining ko'hna va hamisha navqiron tili o'zining butun salohiyati bilan jilvalanadi. “Alpomish” dostoni o'zbek xalqi tilining xira tortmas ko'zgusi, jonli xalq tilining, xalq donoligining tarixi in'ikosidir*²³. Tilimizning lisoniy imkoniyatlaridan birini shevaga xos so'zlar va onomastik birliklar tashkil qiladi. Doston matnida uchraydigan antroponimlar xalqimizning milliy tafakkurini, hududiy-mahalliy o'ziga xosligini, kishilarga ism qo'yish qadriyati motivlarini to'liq aks ettirgan deyish mumkin. Bunday milliy an'ana va qadriyatlarimizga oid tushunchalarni o'zida saqlab kelayotgan antroponimlarning aksariyatini adabiy til me'yorlari asosida dialektizmlar sirasiga kiritish o'rinli sanaladi. Dostondagi atoqli ot guruhiga mansub onomastik dialektal leksik birliklarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

a) *dialektal antroponimlar*. Milliy eposimizdagi kishi nomini ifodalovchi ismlarda dialektallik xususiyatlari sezilib turadi: *“Boybo'ring Bodom cho'ridan Ultontoz degan o'g'li bor edi”*²⁴. Mazkur parchadagi *Ultontoz* erkak kishi ismini anglatuvchi dialektal antroponim hisoblanadi.

²² Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – B.82.

²³ Mahmudov N. Til. – Toshkent: Yozuvchi, 1998. – 33 b.

²⁴ Fozil Yo'ldosh o'g'li. *“Alpomish” dostoni*. – Toshkent: Sharq, 2010. – B. 225. Bundan keying misollar ham shu manbadan olindi. Qavs ichida AD – shaklida qisqartirilib, manba sahifasi ko'rsatildi.

b) *dialektal oronimlar*. Doston matnida tog‘ nomini ifodalab kelgan dialektal oronimlar ko‘p o‘rinda uchraydi. “*Tangqa taylab Olatovni yoyladi*” (AD, 27-bet). Ba‘zi o‘rinlarda *Olatog‘* ko‘rinishda ham uchraydi: “*Olatog‘dan enkaygandir, Qo‘ng‘irot elatin ko‘rgandir*” (AD, 67-bet). “Ola” so‘zining qadimiy shakli – ulug‘. “Boy” so‘zi tog‘ nomlari tarkibida muqaddas, ulug‘, katta ma‘nosiga ega. Tog‘ga sig‘inish, tog‘ kulti asosida ulkan tog‘lar nomlangan. Tog‘larni qadimda tabiatning buyuk mo‘jizasi deb hisoblashgan²⁵. Bu fikrlar qaysidir ma‘noda o‘rinli. Biroq *olatos* dialektal oronimi tarkibidagi [g] tovushining [v] tovushiga o‘zgarishi qipchoq shevalariga xos bo‘lib, bu holat doston matnida ham ko‘rinib turibdi. “Shunisi qiziqki, tog‘liklar *tov* deb talaffuz qiladilar²⁶.”

d) *dialektal etnonimlar*. Doston matnida saqlanib kelayotgan urug‘-qabila va elatlar nomi bilan bog‘liq muhim tasavvurlar nafaqat xalqning shakllanishida, balki, bu urug‘ va qabilalarni bir-biridan ajratishda dialektal tavsifidan kelib chiqqan holda etnonimik madaniyatga ega ekanligini ko‘rsatgan. “*Ana endi o‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida bir chufuron to‘y bo‘ldi*” (AD, 12-bet). Qo‘ng‘irot eli o‘n olti urug‘ ekanligini ta‘kidlanib, *qo‘ng‘irot* tushunchasi umumiy urug‘lar nomi sifatida qo‘llanadi va tarkibiy bo‘linishga ishora qilganligini ko‘rish mumkin.

Mazkur bobning “*Doston tilidagi leksik dialektizmlarning xususiyatlari: jirov idiolektiga xos bo‘lgan so‘zlar*” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida jirov idiolekti hodisasi tadqiq etilgan. Milliy eposimiz matnida nafaqat xalq lahja va shevalarida keng qo‘llanishda bo‘lgan leksik dialektizmlar, balki dostonni ijro etgan baxshilarning nutqigagina xos bo‘lgan dialektal so‘zlar ham uchraydiki, bunday birliklarga *baxshilar idiolekti* birliklari sifatida qarash o‘rinli bo‘ladi. Xorij dialektologiyasida *idiolekt* (inglizcha – *individual til* degan ma‘noni beradi) tushunchasi ham uchraydi. U yakka shaxslarga xos bo‘lgan nutqiy o‘ziga xoslikni bildiradi. Aslida har bir shaxs o‘z tili va shevasi me‘yorlariga rioya qilishga harakat qiladi, lekin shu bilan birga, o‘z nutqi tarzi va saviyasiga ko‘ra lug‘at boyligi hamda o‘ziga xos so‘z tanlash tarzi bo‘ladi. Bu masalalar ham dialektologiyaning obyektini hisoblanadi²⁷. Dostonning F.Yo‘ldosh va A.Poyonov variantlaridagi jirovlar (baxshilar) idiolektini tashkil qilgan leksik dialektizmlarga murojaat qilamiz: “*Jo‘lmon yuzboshi sozini olib, dilkash nag‘masini chalib, baland ohang qilib, irg‘alib, avval to‘yga atab, so‘ng nasihat va kulgili qo‘shiqlar aytib, oxirida shunday deb aytayotgan ekan*” (PAD, 31-bet). Ushbu gapdagi *irg‘alib* birligi leksik dialektizmdir. Bu leksema *turmoq* va *qo‘zg‘almoq* kabi dialektal ma‘nolariga ega. Dialektizmning asosi esa *irg‘i*, ya‘ni buyruq mazmunidagi *sakra* ma‘nosini ifoda etuvchi asosga -l o‘zlik nisbatdagi fe‘l qo‘shimchasi va -ib ravishdosh formasi qo‘shilgan. Ikkinchi bo‘g‘inda kelgan [i] unli tovushi [a] unli tovushiga almashgan. Mazkur shevaga xos so‘z doston matnida dialektal ma‘no va mazmundorligini mujassam qilgan holda nozik harakatni ifodalagan, ya‘ni eposda Jo‘lmon baxshining ijro jarayonidagi o‘tirgan o‘rnidan ohista qo‘zg‘alishi tasvirini aks ettirgan. “Irg‘av – sekin tebratmoq. *Eneng*

²⁵ Nafasov T., Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – B.6.

²⁶ Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – B.70.

²⁷ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2021. – B.16.

siyir savg' incha beshikti irg'ap tur"²⁸. M.Qoshg'ariy ham "Devon"da asta harakatlanish sharhi bilan keltirib o'tadi: "Irg'aldi – silkitildi"²⁹. Umuman olganda, shevaga oid bo'lgan so'zlarning har bir ma'no nozikligi ifoda etilishi asarning dialektal tavsifini yanada oshishini ta'minlagan.

*"Yugurib chopsan chaqqoni,
To'dalab **chibich** serkani,
Boz ustiga haydatib,
Qirq suruv serka, takani"* (PAD, 34-bet).

Mazkur misralarda *echki* uy hayvoniga nisbatan ishlatilgan **chibich** birligi ham leksik dialektizmdir. Bu leksema *yosh* dialektal ma'nosiga ega bo'lib, *kichkina*, *yosh bo'lgan serkani* anglatadi. Shuningdek, bu dialektizm tug'magan echkiga nisbatan ham qo'llaniladi: "*Chibich, chibish* – urg'ochi echki bir tuqqanicha chibich deyilib, so'ng echki deyiladi"³⁰. Shuningdek, mazkur dialektizmga yana quyidagi izoh ham berilgan: "Chibich – chibich. Olti oylikdan bir yoshgacha bo'lgan echki"³¹. Bu so'z Qashqadaryo shevasida echki suti kamligi bois o'sishdan qolgan uloqqa nisbatan ishlatilishi ham mavjud. Ko'rinadiki, bu birliklarning yozilishida tafovut kuzatiladi: **chibich** ham, **chibish** ham *kichkina echki*, *yosh echki*, *tug'magan echki*, *ya'ni olti oylik hamda bir yosh bo'lgan oraliqdagi echki* degan dialektal mazmunga ega. Bu leksemalarning qo'llanishi ham jirovlar nutqining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Ikkinchi bobning uchinchi bo'limi "*Alpomish*" dostonida alohida semasiologik va etimologik jihatdan tahlil zaruratiga ega dialektal leksemalar" deb nomlanadi. "Alpomish" dostoni matnida dialektizmlarning boshqa turlari qatori alohida semasiologik, etimologik izohni talab qiladigan derivatsion dialektal so'zlarning qo'llanilishiga oid misollarni ko'rib chiqamiz:

*"Uloq chopsin, ot belini to'g'alab,
Sayr qilsin, to'qqiz tog'ni yoqalab"* (PAD, 27-bet).

Misoldagi **to'g'alab** leksemasi ham dialektizmdir. "To'g'a – to'qa, ayil, pushtan, suvliq kabi ot jihozlarining uchi o'tkazilib qo'yiladigan anjom"³². Bunda *to'g'a* dialektizmidan fe'l yasovchi *-la* qo'shimchasi bilan *to'g'ala*, *to'g'alamoq* buyruq fe'li va harakat nomi yasalgan. Shevaviy xususiyatini anglamasdan ushbu *to'g'alamoq* fe'lining dialektal ma'nosini tushunish qiyin.

*"Ultontozning qiynovida o'layin,
Har na bo'lsam, jonim bobo bo'layin,
O'lganimcha to'yni buzib ko'rayin,
Gar qo'limdan kelsa, o'rlab turayin"* (PAD, 342-bet).

Bu misralarda *qiynov*, *o'rlab* dialektal birliklari qo'llangan. *Qiynov* leksemasining adabiy tilda *qiynoq* shakli ham me'yorlashgan. *O'r* – asos, *-la* – fe'l

²⁸ Назаров Н. Лақайлар: баъзи сўзлар ва ибораларнинг диалектологик мазмуни. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2005. – Б. 69.

²⁹ "Девону луғатит турк" (Индекс-луғат). – Тошкент: Фан, 1967. – Б.93.

³⁰ Назаров Н. Лақайлар: баъзи сўзлар ва ибораларнинг диалектологик мазмуни. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2005. – Б.129.

³¹ Назаров Н. Лўрсатилган манбаа. – Б. 230.

³² Мирзаев Т., Эшонкул Ж., Фидокор С. «Алпомиш» дostonининг изоҳли луғати. – Тошкент: Elmus-press-media, 2007. – Б.98.

yasovchi qo‘shimcha, *-b* – payt ravishdoshi. Dostonga bag‘ishlangan izohli lug‘atda: “O‘rlashmoq – o‘jarlik qilmoq, gap talashmoq, bahslashmoq, gap bilan o‘rinishmoq, qiyqirishmoq”dir³³.

“*Bulay-ulay* koyish qilayin desa, Barchinning zehni koyib turibdi, kelin bo‘lar degan umid bilan bo‘lakdan chiroq yoqib, sozigarchilik qo‘ldan ketmasin, deb” (AD, 371-bet). Matndagi *bulay-ulay* juft leksemasi *nomiga* degan ma‘noni anglatmoqda. Ya‘ni mumtoz adabiy tilda, qolaversa hozirda qipchoq tip shevalarda qo‘llanadigan ko‘rsatish olmoshlarining *ul-bul* juft shaklida qo‘llanish asosiga *-ay* forma yasovchi qo‘shimchasi qo‘shilishidan vaziyatni ifodalovchi ravish hosil qilingan. Bu dialektizmning *bilay-bilay*, *biloy-biloy* tarzida uchrashi manbalarda keltirilgan³⁴. Misolda *koyish qilmoq* fe‘lidan oldin qo‘llanilgan *shunchaki*, *nomiga* kabi dialektal ma‘nolarni ifodalagan *bulay-ulay* ravishining ma‘nosi *qo‘l uchida* frazeologizmi ifodalagan semaga teng keladi.

“*Bul tuya boqib yurgan Qaldirg‘och oyim, bekning singlisi, ustida jaramli kiyimi yo‘q*” (AD, 323-bet). *Jaramli* – yaroqli. Bu dialektal birlik so‘z boshidagi [y] - tovushining [j] – tovushiga almashishi asosida yuzaga kelgan. *Yaramoq* – *jaramoq*, *yaramaydigan* – *jaramaydigan*. Ana shu holda *jaram* o‘zak morfemasiga sifat yasovchi *-li* affiksial morfemasi qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.

Ishning uchinchi bobi “**Dostondagi fonetik va morfologik dialektizmlar, ularning uslubiy-badiiy xususiyatlari**” deb nomlanadi. Bobning birinchi bo‘limi “*Alpomish*” *dostonidagi fonetik dialektizmlar*” deb nomlanadi. Unda muayyan fonetik sharoitda so‘z o‘zaklari yoki negizlaridagi yondosh tovushlarning bir-biriga ta’siri, birikuvchi bo‘g‘in yoki so‘zlardagi tovushlarning to‘qnashuvi, ohangdoshlik va shu kabilar orasida yuz beradigan tovush o‘zgarishlari yoritilgan.

“*Yig‘laydi Barchinoy chochini yoyib,*

Kanizlarman birga turib sarg‘ayib” (AD, 111-bet). Kishilarga xos *choch* leksik birligining adabiy tildagi varianti *sochdir*. Bu so‘zning dialektizmga aylanishiga [s] - undosh tovushining [ch]- undosh tovushiga o‘zgarishi sabab bo‘lgan. Shu jihatdan olganda bunga adabiy tildagi fonetik hodisa emas, aksincha, dialektal hodisa sifatida qarash mumkin. Quyidagi gaplarda ham fonetik dialektizmlar uchraydi: *Boybo‘ri bilan Boysari* – *ikkovi katta bo‘ldi*. *Boysari boy edi*, *Boybo‘ri shoy edi*” (AD, 12-bet). *Ikkovi* dialektizmida tovush tushish hodisasi ro‘y bergan, *shoy* dialektizmi esa tovush almashish hodisasi natijasining mahsuli. Doston matnida qo‘llangan bunday fonetik dialektizmlar transkripsiyada berilmaganligi uchun ham adabiy tilga yaqinlashib qolganday tuyiladi. Holbuki, birinchisida [i] - tovushi tushgan bo‘lsa, ilk tovushdan oldin [y] - orttirilib, [i] tovushi o‘rnida [e] toshuvi qo‘llangan, *yekkov*, *yekkovi* tarzidagi shakl ham xalq shevalarida uchraydi. Keyingi *shoy* birligida [h] - bo‘g‘iz undoshi o‘rnida [y] - undoshi qo‘llangan. [h] - bo‘g‘iz undoshi qo‘llangan ko‘p so‘zlarda bu tovushning almashishi yoki tushishi lahjaviylashishni yuzaga keltirganligini ko‘rish mumkin: *Shoy* – *shoh*, *bahs boylamoq* – *bas boylamoq* kabi.

“*Yo‘lovchiman, senga burilib qarayman,*

³³ Мирзаев Т., Эшонкул Ж., Фидокор С. “Алпомиш” дostonининг изоҳли луғати. – Тошкент: Elmus-press-media, 2007. – Б. 127.

³⁴ Тўйчибоев Б., Қозоқбой Қ. Зоминнинг тил қомуси. – Тошкент: Akademnashr, 2001. – Б.349.

Kim biladi yilqilarning soyibi” (AD, 313-bet). *Soyib* birligi tarkibidagi [h] undoshi [y] undoshiga o‘zgargan. *Sohib* so‘zi *biror narsaga egalik* ma’nosini anglatib, fonetik hodisa ta’sirida dialektallashgan. Biroq asar matnining ayrim o‘rinlarida ushbu dialektizm *sohib* tarzida uchraydi. Bu holatni nashr jarayonidagi tahrir bilan bog‘liq ekanligini aytish mumkin. Alpomish yilqilarning egasi kimligini quldan so‘rashi fonetik dialektizm bilan ifodalangan.

“*Yilqining sohibini so‘rab turasan,*

Yo‘q narsani so‘rab nima qilasan” (AD, 313-bet).

Birinchi satrda qo‘llanilgan *sohib* so‘zi asarning tahriri jarayonida adabiy lashtirilgan bo‘lishi mumkin. Ikkala shakl ham dostonning turli o‘rinlarida qayta-qayta uchraydi. Ijrodan yozib olinganda *soyib* leksemasi fonetik dialektizm shaklda, tahrirlanganda *sohib* adabiy shaklga keltirilgan deyish mumkin.

“*O‘li-tiri ekanimni bilmasa,*

Uchib chiqay desam, qanot bo‘lmasa” (AD, 223-bet). *O‘li-tiri* birligidagi [k] – undoshi tushishi fonetik dialektizm sifatida dialektal ohang ham hosil qilgan. Asoslari *o‘l, tiril* buyruq fe‘llari -ik, -k ot yasvochi qo‘shimchalari yordamida *o‘lik-tirik* so‘zi yasalgan. Juft shaklda qo‘llanilgan yasamalardan tushgan tovush fonetik dialektlashganligini ko‘rish mumkin.

Bobning ikkinchi bo‘limi “*Dostonda morfologik dialektizmlarning qo‘llanishi*” deb nomlangan bo‘lib, lahjaviylikni aniqlashda morfologik birliklarning o‘rni tadqiq etilgan. Morfologik dialektizm badiiy asarda shevaga xos morfologik elementlarning qo‘llanishidir. Masalan, *Shatta – shu yerda* (“Qora ko‘zlar”), *Dim – juda, gech galdin‘iz* (Xorazm)³⁵. So‘z asosiga shakllar qo‘shilib, adabiy tildagi shakldan o‘zgargan morfologik dialektizmlar doston matnida juda ko‘p uchraydi:

“*Yomon odam mudom qilar g‘ovurdi,*

Lof aytganda botmondan ham ovirdi(r)

Bismillo, deb soldi otning ustiga

Chochog‘i zumratdan zarli davirdi” (AD, 79-bet).

Adabiy tilda *-ni* tushum kelishigini ifodalaydi. Dialektal shakli esa *-di* bo‘lib, doston matnining turli o‘rinlarida juda ko‘p ishlatilgan. Birinchi qatordagi *g‘ovurdi* birligi, ya’ni *g‘ala-g‘ovur* so‘zining bir qismi bo‘lib, *shovqinni* ma’nosida kelgan, shuning uchun ham *-di* tushum kelishigi *-dir* bog‘lamasiga yaqinlashgan – ohangdoshlikni ta’minlagan. Ushbu morfologik dialektizm qofiyadoshlikni ham shakllantirgan.

Shuytib bular ham homilador bo‘lib qoldi (AD, 13-bet). Doston matnida ushbu birlikni ba’zi o‘rinda adabiy tildagi me’yoriy shaklda *shunday qilib*, ba’zi o‘rinda dialektal shaklda *shuytib* ko‘rinishida uchratamiz. Ushbu dialektizm nasriy matn parchalarida *shuytib*, ba’zi parchalarda esa *shunday qilib* tarzida qo‘llangan. Adabiy tilda *shu* olmoshiga *-day* o‘xshatish shakli qo‘shilganda [n]- tovushi orttiriladi. Bu gapda esa adabiy tildagi *shunday* olmoshiga *qilib* ravishdosh shakldagi so‘z qo‘shilib, *shunday* olmoshidan [n] -tovushi; *-day* qo‘shimchasidan [d], [a]-tovushlari va *qilib* ravishdoshidan esa [l], [i]-tovushlari tushirilgan.

³⁵ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2021. – B.16.

